

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MA'MURIY NAZORAT OSTIDAGI
SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATI.**

Xashimova Umida Tursunkul qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 308-guruh kursanti.

Jazoni ijro etish muassasidan bo'shatilgan shaxslarni ijobiy hayot yo'liga qaytarish shunday murakkab masalaki, profilaktika xizmatlari mazkur shaxslarning ijtimoiy hayotga qayta moslashishi bilan bog'liq munosabatlarda kata ro'l o'ynaydilar. Binobarin, birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, jazo o'tash joylaridan qaytib kelgan shaxslarni ish va turarjoy bilan ta'minlash, ularni hayotga qayta ko'niktirish ishlari yetarli tashkil qilinmaganligi, jazo muddatini o'tab qaytgan shaxslar tomonidan jinoyat qilish holatlarining oshishiga olib keladi. Shu bois ma'muriy nazoratni amalga oshiruvchi profilaktika xizmatlari ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik ishlarini yanada kuchaytirishlari lozim.

Ma'muriy nazorat bu, nazorat ostidagi shaxslarga sud tomonidan belgilanadigan ma'muriy cheklowlarni qo'llashdan iborat tarbiyaviy profilaktik ta'sir ko'rsatish choralari majmuidir. Profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslarga nisbatan ularning hulq atvorini nazorat qilishni samarali tashkil etish maqsadida ma'muriy nazorat yig'ma jildi yuritiladi.

Ma'muriy nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim toifadagi shaxslarning turmush tarzi hamda hulq atvorini kuzatish, ular tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish va ularda ijobiy-ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish maqsadida o'rnatiladi. Ma'muriy nazorat sud tomonidan olti oydan bir yilgacha bo'lgan muddatda o'rnatiladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi O'RQ 532-sonli qonunining 6-moddasida o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatiladigan ⏺⦁⦁⦁⦁⦁ shaxslar keltirib o'tilgan bular:

sud tomonidan o'ta xavfli redsidivist deb topilgan;

og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan;

har qanday qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga binoan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat hisoblanadigan qilmishlarni sodir etganlik uchun boshqa davlat hududida ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tagan ma'muriy nazorat sudlanganligi olib tashlangan va sudlanganlik holati tugallangan shaxslarga nisbatan o'rnatilishi mumkin emas.

Profilaktika inspektorlari maxsus ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslar tomonidan sudning ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarorida belgilangan cheklashlarga rioya qilinmagan boshqacharoq aytganda ma'muriy nazorat qoidalarini buzgan shaxslarning javobgarlik choralar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 206-moddasida va O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 226-moddasida jazo chorasi belgilangan.

Xulosa o'nida shuni aytish lozimki ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslarni hayotga qaytadan moslashtirishga, oz o'rnini topib keta olishida profilaktika inspektorlarining ro'li beqiyosdir.